# XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG’ TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

2024-yil 5-sentabr VI-60-117-4-68-K/24 Yakkabog’ tumani

**Yakkabogʻ tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida**

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogodeziya markazi Surxondaryo hududlararo boʻlinmasining 2024-yil 1-avgustdagi Yakkabogʻ tumani hokimiga yuborilgan 01-107-sonli xat orqali maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Yakkabogʻ tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil 7-avgustdagi B-01-06/171-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Yakkabogʻ tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Yakkabogʻ tumani bilan chegaradosh boʻlgan Shahrisabz, Qamashi va Chiroqchi tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq, yoʻl va boshqa tabiiy hamda sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi

ABDULAYEV LUTFIDIN DJURAYEVICH

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani
Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-60-117-4-68-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyati Yakkabogʻ tumanining chegara**
**TAVSIFI**

Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabogʻ tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, qishloq ichki yoʻlining shimol tomonida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 39°2'29,30", sharqiy uzoqlik koordinatalari 66°39'12,91").*

**A dan B gacha Shahrisabz tumani yerlari bilan1-11-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:**

**1-nuqtadan** chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 26 metr keyin shimoliy yoʻnalishda 199 metr masofada ariqqa oʻtadi va umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1300 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 328 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 5166 metr keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 673 metr masofada oʻtadi va sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2633 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°1'40,78", sharqiy uzunlik 66°44'42,95").*

**2-nuqtadan** chegara chizigʻi avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 439 metr keyin tomorqa devori boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 233 metr masofada Yakkabogʻ daryosiga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 869 metr janubiy-sharqiy yoʻnalishda 366 metr, masofani oʻtib, daryo boʻyidagi 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°1'37,59", sharqiy uzunlik 66°45'45,18").*

**3-nuqtadan** chegara chizigʻi avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Yakkabogʻ daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 883 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 206 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1299 metr masofada oʻtadi va janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 217 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 123 metr masofada Yakkabogʻ daryosiga tutashadi va janubiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 2344 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 183 metr masofada ariqqa oʻtadi va sharqy yoʻnalishda ariqningsuv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1624 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 831 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 414 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 891 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqningsuv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 501 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyidagi 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°0'16,80", sharqiy uzunlik 66°49'35,53").*

**4-nuqtadan**chegara chizigʻi avval qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 142 metr keyin yoʻlning sharq tomoni bilan

janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 361 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1372 metr, hamda yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 347 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°59'46,17", sharqiy uzunlik 66°50'46,48").*

**5-nuqtadan**chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, avval sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2271 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda Darxon kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2441 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 181 metr masofani o‘tib, Sangak soyi bo‘yidagi 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°59'58,38", sharqiy uzunlik 66°53'55,75").*

**6-nuqtadan**chegara chizig‘i avval umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Sangak soyining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2938 metr, keyin janubiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1654 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 682 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°58'2,50", sharqiy uzunlik 66°55'37,56").*

**7-nuqtadan** chegara chizig‘i avval umumiy sharqiy yo‘nalishda Sangak soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 2646 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2011 metr masofada oʻtadi va qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari boʻylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1134 metr, soʻng sharqiy yo‘nalishda 285 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 557 metr masofada Sangak soyiga tutashadi va umumiy soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6563 metr,soʻngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 976 metr, masofani o‘tib 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°57'9,38", sharqiy uzunlik 67°3'4,02").*

**8-nuqtadan** chegara avval sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirg‘og‘i bilan 2658 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 422 metr masofani o‘tib 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°57'19,24", sharqiy uzunlik 67°5'1,00").*

**9-nuqtadan** chegara chizig‘i qir adirliklarning suv ayirg‘ichliklari bo‘ylab avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2533 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 584 metr masofada oʻtadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 400 metr, soʻng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 501 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1144 metr, keyin quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3148 metr masofada soyga oʻtadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1307 metr masofani o‘tib 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°54'21,78", sharqiy uzunlik 67°8'11,10").*

**10-nuqtadan** chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1584 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 1178 metr masofada soyga tutashadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirg‘og‘i bilan 761 metr, soʻng umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4021 metr masofada oʻtadi va sharqiy yo‘nalishda 1192 metr masofada oʻtadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1319 metr soʻngra shimoliy yoʻnalishda 765 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 654 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv

oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3638 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°51'22,53", sharqiy uzunlik 67°11'40,77").*

**B dan D gacha Qamashi tumani yerlari bilan11-32-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**11-nuqtadan** chegara chizig‘i soydan to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 525 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3072 metr masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2258 metr, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 269 metr masofada o‘tadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda 75 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 39 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 57 metr masofada o‘tadi va janubiy yo‘nalishda 316 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 45 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°50'20,38", sharqiy uzunlik 67°8'21,94").*

**12-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 471 metr, keyin umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 311 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 730 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 58 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 331 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 72 metr mosofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 166 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 83 metr mosofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 23 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 21 metr masofada o‘tadi va shimoliy yo‘nalishda 95 masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1048 metr so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 267 metr mosofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 322 metr masofada o‘tadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 76 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 40 metr masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1164 metr masofada o‘tadi va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 87 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 315 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 120 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy yo‘nalishda 217 metr so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 141 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°50'27,25", sharqiy uzunlik 67°5'50,78").*

**13-nuqtadan** chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1200 metr masofada o‘tadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 138 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 81 metr masofada o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 46 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 55 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 541 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 15899 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi

bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°48'24,19", sharqiy uzunlik 66°54'58,08").*

**14-nuqtadan** chegara chizig‘i tog‘ tizmasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 282 metr masofada o‘tadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 423 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 55 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 368 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy yo‘nalishda 47 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 416 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 74 metr masofada o‘tadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 73 metr masofada o‘tib va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 38 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 116 metr masofada o‘tadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofada o‘tib va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 157 metr masofada o‘tadi va janubiy yo‘nalishda 263 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 59 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 515 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 164 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 290 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 221 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°49'9,97", sharqiy uzunlik 66°53'34,43").*

**15-nuqtadan** chegara chizig‘i avval janubiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi 328 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 84 metr, so‘ng umumiy quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1619 metr masofani o‘tib 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°48'15,03", sharqiy uzunlik 66°53'37,34").*

**16-nuqtadan** chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1413 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 105 metr masofada soyga tutashadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 72 metr, so‘ng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2352 metr, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 324 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1560 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°46'14,63", sharqiy uzunlik 66°51'52,02").*

**17-nuqtadan** chegara chizig‘i umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1361 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 191 metr, masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 324 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 446 metr masofada quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 269 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 32 metr masofada o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 161 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 70 metr masofada o‘tadi va umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 971 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3019 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 773 metr masofani o‘tib 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°44'58,23", sharqiy uzunlik 66°51'35,37").*

**18-nuqtadan**chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval gʻarbiy yo‘nalishda 6277 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 1541 metr, soʻng shimoliy yo‘nalishda 1161 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 29 metr, keyin umumiy quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yoʻnalishda 1505 metr masofani o‘tib 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°46'28,04", sharqiy uzunlik 66°46'40,30").*

**19-nuqtadan** chegara umumiy quruq chegara chizig‘i orqali avval gʻarbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 424 metr masofada oʻtadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 344 metr keyin shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 462 metr masofada oʻtadi va quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 136 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 159 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 275 metr masofada oʻtadi va umumiy quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 672 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 1806 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 2996 metr, keyin janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 618 metr masofada oʻtadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 474 metr masofani o‘tib 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°46'49,26", sharqiy uzunlik 66°43'21,02").*

**20-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali umumiy avval gʻarbiy yo‘nalishda 1028 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 1176 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 229 metr masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi boʻylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 97 metr, soʻngra shimoliy yo‘nalishda 1289 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1801 metr masofani o‘tib, soy boʻyidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°47'35,51", sharqiy uzunlik 66°41'29,47").*

**21-nuqtadan**chegara chizig‘i umumiy soyning suv oqimi boʻylab chap qirg‘og‘i bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 461 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy yo‘nalishda 3158 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 874 metr masofada soyga tutashadi va umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 835 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 166 metr masofada oʻtadi va quruq chegara chizig‘i orqali umumiy gʻarbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1517 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 122 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy yo‘nalishda 122 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 93 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 98 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirg‘og‘i bilan shimoliy yo‘nalishda 395 metr masofani o‘tib, soy boʻyidagi 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°47'55,16", sharqiy uzunlik 66°37'36,96").*

**22-nuqtadan** chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirg‘og‘i bilan avval 166 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 143 metr masofada oʻtadi va umumiy quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 353 metr masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirg‘og‘i bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 2521 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 32 metr masofada oʻtadi va shimoliy yo‘nalishda

46 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 75 metr masofada soyga oʻtadi va janubiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 41 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr masofada oʻtadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 757 metr masofada oʻtadi va quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 276 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 2411 metr masofada beton ariqni kesib oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 429 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 48 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 228 metr masofada oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 277 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1503 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°50'58,97", sharqiy uzunlik 66°36'39,30").*

**23-nuqtadan**chegara chizigʻi avval shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 252 metr, keyin dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1429 metr masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2452 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°52'37,82", sharqiy uzunlik 66°36'22,84").*

**24-nuqtadan** chegara chizigʻi umumiy soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 4863 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1595 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°38°52'36,90", sharqiy uzunlik 66°33'25,04").*

**25-nuqtadan** chegara chizigʻi soydan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan avval shimoliy yoʻnalishda 749 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtadi va temir yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2137 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 69 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 113 metr masofada oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda 119 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 540 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 603 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 52 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 193 metr, keyin dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 141 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyidagi 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°54'30,86", sharqiy uzunlik 66°34'29,30").*

**26-nuqtadan** chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 446 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 91 metr masofada oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 332 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 302 metr masofada soyni kesib oʻtadi va soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan shimoliy yoʻnalishda 303 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 59 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 74 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 101 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 834 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 142 metr masofada

soyga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 263 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 121 metr masofada koʻlga oʻtadi va koʻlning oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 36 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 248 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°54'47,18", sharqiy uzunlik 66°33'13,49").*

**27-nuqtadan**chegara chizigʻi umumiy soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 2581 metr masofada oʻtadi va janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 796 metr, keyin umumiy soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1239 metr masofada oʻtib va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 771 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 231 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 233 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1515 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°53'52,68", sharqiy uzunlik 66°29'8,59").*

**28-nuqtadan** chegara chizigʻi umumiy soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1694 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 379 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 78 metr masofada zovurga tutashadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 128 metr masofada zovurni kesib oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 109 masofada oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda 284 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 505 metr masofada ariqqa oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 111 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 385 metr masofada ariqqa oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 54 metr masofada oʻtib va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 108 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy yoʻnalishda 52 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 23 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 95 metr masofada oʻtadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 249 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 51 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°54'53,97", sharqiy uzunlik 66°27'22,87").*

**29-nuqtadan** chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 1181 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 21 metr masofada oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy yoʻnalishda 141 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 105 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 606 metr masofada oʻtadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 107 metr masofada zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 363 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 131 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 100 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 268 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°55'37,45", sharqiy uzunlik 66°26'43,82").*

**30-nuqtadan** chegara chizigʻi umumiy soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan avval shimoliy yoʻnalishda 2740 metr, keyin soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda

534 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°56'14,52", sharqiy uzunlik 66°25'10,56").*

**31-nuqtadan**chegara chizig‘i soydan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va umumiy yo‘lning sharq tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurni kesib o‘tib barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3032 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 257 metr masofada o‘tadi va umumiy quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1140 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 84 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 172 metr masofani o‘tib 32-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°58'9,09", sharqiy uzunlik 66°26'35,16").*

**D dan A gacha Chiroqchi tumani yerlari bilan 32-1-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**32-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 241 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 544 metr masofani o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda 438 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 127 metr masofada ariqqa o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda ariqining suv oqimiga qarshi 772 metr, so‘ng qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 345 metr, so‘ngra zovurni kesib o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofada ariqqa o‘tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqining suv oqimiga qarshi 1499 metr, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 456 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°57'41,45", sharqiy uzunlik 66°29'29,56").*

**33-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 239 metr, keyin 4P79 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 209 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°57'46,10", sharqiy uzunlik 66°29'38,85").*

**34-nuqtadan** chegara chizig‘i 4P79 avtomobil yo‘ldan soyga o‘tadi va umumiy avval sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 679 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 544 metr, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 32 metr masofada latokka o‘tadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda latokning suv oqimiga qarshi 331 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 290 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 740 metr masofani o‘tib, latok bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°58'6,69", sharqiy uzunlik 66°30'59,68").*

**35-nuqtadan** chegara chizig‘i avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda latokning suv oqimiga qarshi 106 metr masofada o‘tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 143 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 25 metr masofada zovurga o‘tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1250 metr masofada o‘tadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 305 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 720 metr masofada o‘tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 557 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 329 metr masofada ariqqa o‘tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1699 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 32 metr masofada o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-

shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 224 mert masofada zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 26 metr masofada boshqa zovurga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 289 metr masofada oʻtadi va sharqiy yoʻnalishda 26 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 221 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°0'15,24", sharqiy uzunlik 66°33'34,88").*

**36-nuqtadan** chegara chizigʻi avval sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 158 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 182 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1230 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 69 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°0'58,31", sharqiy uzunlik 66°34'4,43").*

**37-nuqtadan** chegara chizigʻi avval janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 64 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 779 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 79 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 337 metr masofada boshqa zovurga oʻtadi va shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 81 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 135 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°0'55,68", sharqiy uzunlik 66°34'46,33").*

**38-nuqtadan** chegara chizigʻi zovurdan ariqqa oʻtadi va sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 63 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 948 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 55 metr masofada zovurga tutashadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 112 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 197 metr masofada ariqqa tutashadi va janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 360 metr masofada zovurga tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 708 metr masofada oʻtadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 195 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 35 metr masofani oʻtib, P-84 avtomobil yoʻli boʻyidagi 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°1'5,98", sharqiy uzunlik 66°36'10,01").*

**39-nuqtadan** chegara chizigʻi P-84 avtomobil yoʻlidan zovurga oʻtadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 32 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 1616 metr masofada Moskva kanalini kesib oʻtib, sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 797 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 104 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 78 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 212 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 40-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°0'49,40", sharqiy uzunlik 66°37'55,76").*

**40-nuqtadan** chegara chizigʻi avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 237 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 422 metr masofada oʻtadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 240 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 108 metr masofada oʻtadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 98 metr masofada zovurni kesib oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 95 metr masofada oʻtadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 123 metr masofada ariqqa

tutashadi va umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqmiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1655 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 52 metr masofada oʻtib va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 214 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqmiga qarshi chap tomoni bilan 44 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 41-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°1'22,19", sharqiy uzunlik 66°39'41,89").*

**41-nuqtadan** chegara chizigʻi avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 570 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 324 metr masofada latokga tutashadi va shimoliy yoʻnalishda latokning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 416 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 60 metr masofada oʻtadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 246 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 104 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 375 metr, keyin Moskva kanalini kesib oʻtib, shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 29 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 514 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyidagi 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°2'29,30", sharqiy uzunlik 66°39'12,91").*

Xalq deputatlari Yakkabog' tumani Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-60-117-4-68-K/24 -son qaroriga
2-ilova

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha*

**KARTOGRAFIK CHIZMASI**




**Chegaradosh yerlar izohnomasi**

**A dan B gacha** *Shahrisabz tumani yerlari*

**B dan D gacha** *Qamashi tumani yerlari*

**D dan A gacha** *Chiroqchi tumani yerlari*

**Shartli belgilar**

| | |
|---|---|
| 1 | **Chegaraning burilish nuqtalari** |
| | **Tumanlar chegarasi** |